

QADIMGI ERON DAVLATI

SHDPI TARIX KAFEDRASI O'QITUVCHISI **Bobojonov Behruz**

SHDPI 2-KURS TALABASI **Otamurodov Doniyorbek**

SHDPI 1-KURS TALABASI **Qosimova Dinora**

SHDPI 1-KURS TALABASI **G'ayratova Nozigul.**

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada qadimgi sivilizatsiyalardan biri bo'lgan Qadimgi Eron davlati haqida so'z yuritiladi. Bu davlatning tabiiy sharoiti, joylashgan o'rni, aholisi, podsholari, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari, madaniyati, harbiy yurishlari. Eron davlati haqida so'z ketganda avvalo, ulkan Imperiya bo'lgan Ahamoniylar Davlati ko'z o'ngimizga keladi.

KALIT SO'ZLAR; Persepol, Kirmonshoh, Suza, Darik, Elam, Kir II, Kiaksar,

АННОТАЦИЯ: Эта статья об одной из древних цивилизаций, Древнем Иране. Это природные условия страны, ее расположение, население, короли, социально-экономические отношения, культура, военные походы. Когда мы говорим об Иране, первое, что приходит на ум, — это Империя Ахеменидов, огромная империя.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА; Персеполь, Кермоншах, Сузы, Дарик, Элам, Кир II, Киаксар,

ANNOTATION: This article is about one of the ancient civilizations, Ancient Iran. These are the natural conditions of the country, its location, population, kings, socio-economic relations, culture, military campaigns. When we talk about Iran, the first thing that comes to mind is the Achaemenid Empire, a huge empire.

KEYWORDS; Persepolis, Kermonshah, Susa, Darik, Elam, Cyrus II, Cyaxares,

KIRISH.Eron janubi-g'arbiyOsiyodagi qadimgi qulchilikka asoslangan mustabid davlatlardanbiri boigan. Eron qudratli davlatga aylangan davrda uning g'arbiychegarasi O'rtayer dengizi sohillariga borib yetgan. Shimolda esauni Pont, Elbrus, Turkman-Xuroson, Hindikush tog'lari o'rab turaredi. Eron hududida eng dastlabki davlat birlashmalarini mamlakatning janubi-g'arbida joylashgan elamliklar tuzgan. Qadimgi fors davlati tarixi'yicha manbalar xilma-xil: buxo'jalik hujjatlari, tarixiy yozuvlar, amaldorlaming rasmiyyozishmalari. Hozirgi vaqtda qadimgi fors tilida elam va akkad tillariga tajjima qilingan 200 ga yaqin (podsholar) mixxat yozuvlari chop etilgan. 1972-yilda fransuz arxeologlari Suzada Doro I ningulkan haykalini topdilar. Haykal qadimgi fors, elam, akkad va misr iyeroglif matnlari bilan qoplangan. Qadimgi Eron poytaxtlari Persepol yoki Pasargadda, podsho Kserks yozuvlari nusxalari topilgan. Persepolda er.aw. III ming yillikka oid elam tilida mixxat bilan yozilgan 800 ta hujjat topilgan. Shuningdek, Misrdan forslar davriga oid turli xil ma'muriyxo'jalik hujjatlari, podsho Kumbizning Misr ibodatxona mulklarini cheklash to'g'risidagi dekreti, Doro I ning Misr qonunlarini kodifikatsiya qilish to'g'risidagi farmoni katta qiziqish uyg'otadi. Hozirgi kungacha 200 ga yaqin ponasimon (mixsimon) yozuvlari orasida Kirmon shahrining sharqidagi Behistun qoyasigao'yib yozilgan katta xat juda muhim ahamiyatga ega. Bu yozuvda Eron shohi Doro I Kambiz (Kambiz) oigandan keyin mamlakatda ko'tarilgan qo'zg'olonni qanday qilib bostirgani, barcha isyonchilarni qanday tor-mor qilgani. saklarga qarshi qo'shin tortibborib, Eron davlatining yahlitligini qanday qilib tiklagani va boshqa siyosiy voqealar mufassal ta'riflanadi. Suvaysh kanali hududida saqlangan va Misr tiliga tarjima qilingan qadimgi Eronning ponasimon mixxati ham shu shohga mansubdir. Elamliklar m.a. IV ming yillikdayoq o'ziga xos san'at yaratishgan.M.a. II ming yillikda uning rivojiga Bobil san'ati katta ta'sirko'rsatgan. Malika Napirasuning bronza haykali Elam san'atining nodirnamunasidir. Elam me'morchiligining eng yirik yodgorligi m.a. XIIIasrda Dur-Untash (hozirgi Choga-Zambil)

yaqinida barpo etilgan, umumiy balandligi 42 metrni tashkil etgan zikkurat sanaladi. Midiyalik va fors qabilalari m.a. I ming yillikning boshlarida Eronga kirib kelishgan. Ular eron tilining turli lahjalarida so'zlashgan va ko'pchiligi ko'chmanchi chorvachilik, shuningdek dehqonchilik bilan shug'ullanishgan. Ossuriya manbalarida ular haqidagi ilk ma'lumotlar mil.avv. IX asrga oid.¹

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI. Ushbu maqolani yoritishda Qadimgi Eron davlati shakllanishi va rivojlanishiga alohida e'tibor qaralib, Abdujabbor Kabirov "Qadimgi Sharq Tarixi", R.Rajabov "Qadimgi Dunyo Tarixi", L.B.Qodirova "Qadimgi Sivilizatsiyalar tarixi", V.I.Abdiyev "Qadimgi Sharq Tarixi",

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Manbashunoslik, matnshunoslik, tahliliy, taqqoslash.

TAHLIL VA NATIJALAR. Er. av. VII asrda g'arbiy Eronda ilk siyosiy birlashmalar paydo bo'ladi. Shunday birlashmalardan biri Manna podsholigi edi. Er.avv. 672-yilda Midiya qabilalari yo'lboshchi Kashtariti boshchiligida Osuriyaga qarshi qo'zg'olon ko'taradilar. Er.avv. 671-yilda midiyaliklar o'z hududlarining g'arbiy qismidan osuriyaliklarni haydab chiqarib, mustaqil davlat tuzganlar. Kashtariti sekin asta Midiya qabilalarini birlashtiradi. Er. avv. VII asr o'rtalarida Midiya qadimgi sharqda kuchli davlatga aylanadi. Er.avv. 625-yil Kashtaritining o'g'li Kiaksar skiflarning bosqinini bartaraf qilib, barcha midiya qabilalarini birlashuvini to'liq tugallaydi va poytaxti Ekbatana bo'lgan yagona davlat tuzadi. U qurol turlari bo'yicha (nayzabardorlar, kamonchilar, otliqlar) bo'lingan muntazam qo'shin tuzadi. Shundan so'ng, Midiya raqibi Osuriyaga qarshi dastlab o'zi, keyin Bobil bilan ittifoq bo'lib kurash boshlaydi.²

Qadim zamondan boshlab Urmiya ko'lining janubiy tomonlarida parsua qabilalari yashar edilar. M. av. VIII—VII asrlarda ular Elamga ko'chib ahamon urug'idan chiqqan sardor atrofida birlashgan. Dastlabki podsholari Kayxusrav I davrida Ossuriyaga, Kambiz davrida (600-559) Midiyaga itoat etganlar. Kambiz bilan Midiya shohi Astiagning qizi o'rtasidagi nikohdan Kayxusrav II dunyoga keladi. Kambiz vafot etgach, Parsua taxtiga Kayxusrav II o'tirib, m. av. 559-yilda Pasarga shahrini qurib, uni davlat poytaxtiga aylantiradi. M. av. 553-549-yillar mobaynida olib borilgan urushlarda Kayxusrav bobosi Astiag qo'shinarini yengib, Midiya va Elamni Parsuaga qo'shib, oladi. Shu tariqa ahamonivlar urug'i asos solgan Parsua ya'ni Eron davlati tashkil topadi. Kayxusrav II g'arbda Lidiya shohi Krez qo'shinlarini, shimolda urartuliklarni yengib, butun Kichik Osiyoni bosib oladi. M.a. 539 yil kuzida Bobil bosib olingach, barcha g'arbiy mamlakatlar (Suriya, Falastin, Finikiya) Misr chegarasigacha forslar qo'liga o'tadi.³ Kayxusrav fors davlatining shimoliy-sharqiy chegaralari xavfsizligiga jiddiy xavf solib turadigan O'rta Osiyodagi ko'chmanchi qabilalar ustiga yurish boshlaydi. Kayxusrav m.a. 530 yilda Amudaryoning shimoliy qismiga o'tadi va massaget qabilalari bilan bo'lgan jangda mag'lub bo'lib, o'zi ham halok bo'ladi. Uning vorisi Kambiz (Kombiz, m.a. 529-522 yy) m.a. 525 Misrga yurish qilib, uni bosib oladi va fir'avn deb e'lob qilinadi. M.a. 522 yilda Kambiz halok bo'ladi va hokimiyat uchun kurashdan so'ng taxtga Doro I (m.a. 522-486-yillar) o'tiradi. Doro I taxtga o'tirishi bilan unga qarshi Bobilda ko'tarilgan qo'zg'olonni bostirayotgan bir vaqtda Fors, Midiya, Elam, Marg'iyona, Parfiya, Sattagidiya (hozirgi Afg'onistonda) O'rta Osiyoning sak qabilalari va Misr qo'zg'olon ko'taradilar. Bir yil davom etgan qonli urushlardan so'ng bu qo'zg'olonlar bostiriladi. Mil. avv. VI asrning oxiriga kelib Ahomaniylar davlatining chegaralari sharqda Hind daryosidan, g'arbda Egey dengizigacha, shimolda Armanistondan

¹ Abdujabbor Kabirov "Qadimgi sharq tarixi", Toshkent-2016, 229-233-betlar.

² R.Rajabov "Qadimgi dunyo tarixi", Toshkent-2009, 151-155-betlar

³ L.B.Qodirova "Qadimgi Sivilizatsiyalar tarixi",

janubda Nilgacha bo'lgan juda katta hududga cho'zildi, o'nlab davlatlar va xalqarni birlashtirdi. Shu tariqa insoniyat tarixida birinchi marta olamshumul davlat vujudga keldi. Ahamoniylar davrida shakllangan ijtimoiy - iqtisodiy tashkilotlar va madaniy an'analar jahon tarixida katta rol o'ynadi va yuzlab yillar davomida shakllanib, Makedoniyalik Aleksandr, salavkiylar, parfiyaliklar va sosoniylar davrida ham ulardan foydalanildi.⁴

XULOSA VA TAKLIFLAR. Xulosa o'rnida aytish joizki Qadimgi Eron davlati ilk sivilizatsiyalardan biri bo'lgan. Yana shuni aytib o'tish kerakki, Qadimgi Eron davlati yurtimiz tarixi uchun ham juda katta ahamiyatga ega. Mil.avv. 558-yilda ulkan Ahamoniylar davlati vujudga kelishi dunyo tarixida juda katta voqe'lik bo'ldi. Bu ulkan Imperiya Hindiston yarimorolidan, O'rtayer dengiziga qadar ulkan va bepoyon hududlarni bosib oladi. shu bilan bir qatorda bosib olgan o'lkalarda o'z boshqaruv tizimini ham joriy qiladi. Ahamoniylardan qolgan davlatchilik an'analarini keyinchalik boshqa ulkan davlatlar ham o'zlashtirishadi.

Taklif tariqasida shuni aytish joizki Ahamoniylar davlati, umuman, Qadimgi Eron tarixini o'rganish, yurtimiz tarixini o'rganish demakdir. Chunki Ahamoniylar davlati miloddan avvalgi asrlarda yurtimizga bostirib kelishgan. O'sha paytda O'rta Osiyoda mavjuda bo'lgan Baqtriya, Marg'iyona, So'g'diyona davlatlari, sak va massaget qabilalari ijtimoiy hayoti, madaniyatiga Ahamoniylarning ta'siri juda katta bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. xulosa qilib aytganda Qadimgi Eron davlati dunyo tarixi davlatchiligida juda katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdujabbor Kabirov "Qadimgi sharq tarixi", Toshkent-2016, 229-233-betlar.
2. R.Rajabov "Qadimgi dunyo tarixi", Toshkent-2009, 151-155-betlar.
3. L.B.Qodirova "Qadimgi Sivilizatsiyalar tarixi".
4. V.I.Abdiyev "Qadimgi Sharq Tarixi"
5. Begaliyev, N., Xumoyun, A., & Shahlo, S. (2024). RTA OSIYO GIDROTEXNIKA INSHOOTLAR TARIXI SARDOBA VA KORIZLAR MISOLIDA. UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES, 2(9), 57-62.
6. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО-ҚАРИШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. Science and innovation, 3(Special Issue 3), 141-144.
7. Begaliyev, N. X. (2022). ETNOLOGIK TADQIQOTLARDA TERMINOLOGIYA MUAMMOSI. Oriental Journal of Social Sciences, 2(2), 69-72.
8. Otamurodov, D. (2024). IMOM BUXORIY - BUYUK MUHADDIS ALLOMA. YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).
9. Sobit, K. (2023). THE LAUNCH OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL EVENTS IN THE NEIGHBORHOODS OF SHAHRISABZ CITY. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(1), 398-401.
10. Sunnatovich, Q. I., & Sobit, K. (2023). VARGANZA QISHLOG'IDAN TOPILGAN YODGORLIKLAR TARIXI (I-XV ASRLAR). JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING, 2(9), 33-35.
11. Bobokulovna, Q. F. (2024). RESPUBLIKA "TADBIRKOR AYOL" UYUSHMASINING AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOLANTIRISHDAGI ROLI. TADQIQOTLAR. UZ, 35(1), 111-113.
12. Qanoatova, F. (2024). TURIZM RESURSLARINI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING AHAMIYATI. YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).
13. Tolibov, N. (2024). EKOTURIZM SOHASIDA TARIXIY JOYLAR VA OBIDALARNING AHAMIYATI. YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).

⁴ V.I.Abdiyev "Qadimgi Sharq Tarixi",

14. Nurillaevich O. B. et al. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – C. 984-989.
15. Aralovna O. G. et al. Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes //Journal of Survey in Fisheries Sciences. – 2023. – T. 10. – №. 1S. – C. 5000-5006.
16. Ayonovna A. S. The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization //Global Scientific Review. – 2023. – T. 13. – C. 7-10.
17. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o'g'li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ' //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
18. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o'g'li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ' //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
19. Otamurodov, D. (2024). IMOM BUXORIY - BUYUK MUHADDIS ALLOMA. YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).